

YASHIL IQTISODIYOT VA YASHIL MOLIYALASHTIRISH DOIRASIDA AMALGA OSHIRILA YOTGAN ISLOHOTLAR

Egamberdiyeva Matluba,

Baxtiyarova Gulnoza,

Nurmamatova Madina

TDIU "Moliya fakulteti" MMT-94 guruhan talabalari

Annotatsiya. So‘nggi o‘n yil ichida iqtisodiyot, ekologiya va jamiyat globallashuvdan jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayni paytda, sanoatlashgan ham, rivojlanayotgan davlatlar ham yashil iqtisodiyotni o‘sish va rivojlanishning hal qiluvchi asosi sifatida ko‘rmoqda. Ba’zi xulosalar chiqarish uchun joriy tadqiqot globallashuv, yashil iqtisodiyot va iqlim muammolari haqida to‘liq ma'lumot berishga qaratilgan. Turli xil ta’riflar va qarama-qarshi yashil iqtisodiy nutqlar mavjud va ularning har biri o‘z muammolariga ega. Yashil iqtisodiyotni ishga tushirishning keng tarqalgan misollari tabiiy resurslarning kamayib ketishining salbiy ekologik ta’sirini va atrof-muhitni boshqarishning ijobiy iqtisodiy ta’sirini tan olishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yangi tadqiqotda iqlim o‘zgarishining infratuzilma va yashil iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot, shuningdek, iqtisodiy tuzilmaning ekologik muammolarni qanday kamaytirishi va ishlab chiqarish hajmini oshirishi mumkinligini hisobga oladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil o‘sish, yashil makon, ESG strategiyasi, investitsiya, ekologiya.

XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri, albatta, ekologiya hisoblanadi. Har bir mamlakat rivojlanar ekan, iqtisodiyotini yuksaltirar ekan ekologik muammolarga duch kelishi mumkin. Barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishda atrof - muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish shart. Dunyo bo‘ylab ekologik xavf-xatarlar vujudga kelmoqda. Buning oldini olish uchun har bir mamlakat ekologik islohotlar bilan bir qatorda iqtisodiyotini ekologik toza iqtisodiyotga o‘tkazishga urinmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir, deb belgilab qo‘yilgan.

2019-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasida mamlakatimizni uzoq muddatli istiqbolda jahonda taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida cheklangan, takror ishlab chiqarilmaydigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish vazifalarini hal etish ko‘zda tutilgan. Ushbu strategik maqsadlarga erishish

uchun amaliyotda qo'llanilayotgan texnologiyalarni modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish yalpi ichki mahsulot birligiga sarflanayotgan issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilarini 2030-yilda 2010-yilga nisbatan 10 foizga kamaytirish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini 100 foiz zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanishga o'tkazish, ekologik yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarishga o'tish, elektr transportini jadal sur'atlarda rivojlantirish vazifalarini hal etish lozim.

Darhaqiqat, global muammolarni hal qilish jarayonida yashil iqtisodiyotga o'tish maqsad va vazifalarini bajarish uchun uzoq muddat va katta miqdordagi mablag'ni talab etadi. Yashil o'sish ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni birlashtirgan holda iqtisodiy o'sishning yangi paradigmasi bo'lganligi sababli, ushbu g'oyani ilgari surish uchun iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan moliyalashtirish zaruriyati tug'iladi.

Mamlakatimizda aynan shu yo'naliш bo'yicha qo'yilgan katta qadamlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi bo'ldi desak adashmaymiz. Mazkur qarorda "jadallahayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning resurslarga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirayotganini, shuningdek, atrof muhitga salbiy antropogen ta'sirni kuchaytirayotganini va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelayotganini hamda iqtisodiyot energiya samaradorligining past darajasi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, texnologiyalar yangilanishining sustligi, "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining yetarli emasligi mamlakatni barqaror rivojlantirish sohasidagi ustuvor milliy maqsadlar va vazifalarga erishishiga to'sqinlik qilayotgani" haqida so'z boradi. Hozirda butun dunyo bo'ylab mamlakatlar, tashkilotlar, korxonalar va investorlar iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflarga moslashish uchun o'z tizimlari va asoslarini faol ravishda qayta shakllantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil moliya mamlakatimizda barqaror rivojlanish sohasidagi sarmoyaviy va moliyalashtirish muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi, rivojlangan xorij davlatlari tajribasini yurtimizda joriy etgan holda "yashil moliyalashtirish"ni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga erishishimiz mumkin.



Ekologik omillar



Ijtimoiy omillar



Boshqaruvi omillari

1-rasm. ESG strategiyasi tamoyillari¹

Jahon iqtisodiyotini rivojlantirish, barqaror iqtisodiy siyosat yuritish jarayonida ko‘plab yuzaga keladigan muammolar mamlakatlarda o‘xshash yoki ayni shaklda bo‘lishini uchratishimiz mumkin. Xususan, global miqyosda xavf soladigan muammolar aksariyat qismi tabiat hodisalariga bevosita bog‘liqdir. Dunyo aholisi sonining ortib borishi natijasida ishlab chiqarishga ehtiyoj ham ortishi kuzatilmoqda.

Bu vaziyat iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar taqchilligi, bio xilma-xillikning yo‘qolib borishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi, energiya, tabiiy gaz va suvga talab ortishi natijasida muammolarning kengayishiga sabab bo‘lmoqda. Ko‘plab xorij mamlakatlari va mamlakatimizda ham yashil iqtisodiyotga o‘tish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilishi shart bo‘lib qolmoqda. Yashil iqtisodiyotni iqtisodiy soha sifatida kiritish orqali ko‘plab global uchraydigan muammolarga yechim topish nazarda tutilgan. Bunda energiya tejamkorligini ta’minlash, qayta tiklanadigan energiya manbalari uchun zaruriy texnologiyalarni aniqlash va qo‘llash, suvdan oqilona foydalanish va qurg‘oqchilik muammolarini hal qilish, mamlakat barcha hududlarini suv bilan to‘liq ta’minlash, qishloq xo‘jaligi sohasini yaxshilash natijasida tabiiy yo‘l bilan yetishtirilgan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish orqali aholi yashash sharoitlarini yaxshilab borish asosiy maqsad qilib belgilab olingan.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bilan birgalikda yashil belbog‘, yashil makon dasturlari ham ishga tushurildi. O‘tkazilgan so‘rovlar natijasida ekspertlar tomonidan quyidagi xulosa va takliflar berildi.

Respondentlarning 80,7 foizi chang ko‘tarilishini kamaytirish uchun barcha ochiq maydonlarga daraxtlar va ko‘p yillik o‘tlarni ekish orqali “yashil belbog” yaratish kerak, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, ekilgan daraxtlarni doimiy parvarishlash, monitoring qilish, kesish holatlariga jazoni kuchaytirish muhimligini ham qo‘srimcha qilishgan.

¹ <https://communityfirstfoundation.org/environmental-social-and-governance-investing/>

So‘rovda qatnashgan ekologlarning 74,4 foizi shaharsozlik Bosh rejalarini tasdiqlanmaguncha yangi, ayniqsa, ko‘p qavatli va noturar binolar qurilishiga moratoriyl joriy etish, qurilishlarga faqat “yashil” standartlar doirasida ruxsat berish zarurligini ta’kidlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O‘quv qo ‘llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
2. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo ‘llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
3. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
4. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 28.01.2023. PF-60- sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
6. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
7. У Ўроқов, Д Усқенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-хуқуқий асослари - Science and Education, 2022
8. Ўроқов У, Иргашев И, Файбулаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
9. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
10. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
11. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
- 12.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
13. O‘roqov U. Y., qizi Rahimova N. J. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 229-239.
- 14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023-yilda Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi 16.02.2023 PQ-57-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>
- 15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-sonli qarori 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori,, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-sonli qarori
- 16.Dilmurod o’g‘li, Fayzullayev Abdusamad, and Rahimova Nozimaxon Jahongirovna. "O‘ZBEKİSTONDA YASHIL İQTİSODIYOTNING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHİTGA TA’SIRI." *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 5.1 (2024): 19-23.*